



Bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari

Amanov Akmal Aripjonovich –

Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

E-mail: amanovakmalbek@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-5069-5802>

Annotatsiya. *Tadqiqot maqsadi: bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tarixiy-genetik va qiyosiy tahlil asosida ishlab chiqish. Tadqiqot metodlari: kommunikativ va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyalari bo'yicha xorijiy ilmiy adabiyotlarni tarixiy-genetik va qiyosiy tahlil qilish, olingan xulosalarni sintez qilish asosida nazariy modellashtirish. Tadqiqot natijalari: "kommunikativ kompetensiya" tushunchasidan "madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya" tushunchasiga o'tishning uch bosqichli ilmiy evolyutsiyasi aniqlandi; umumiy til o'rganuvchi va tarjimonga xos madaniyatlararo kompetensiyalar o'rtasidagi farqlar asoslandi; bo'lajak tarjimonning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasiga ilmiy ta'rif berilib, uning bilim, faoliyat va shaxsiy-munosabat komponentlaridan iborat tuzilishi ishlab chiqildi. Xulosalar: aniqlangan nazariy asoslar bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash sohasidagi keyingi amaliy-metodik tadqiqotlar uchun kontseptual negiz bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, bo'lajak tarjimon, tarjimonlik faoliyati, madaniyatlararo vositachilik, lingvokulturologiya, kompetensiyaviy yondashuv, nazariy model, pragmatik ekvivalentlik, madaniyatlararo sezgirlik, tarixiy-genetik tahlil.

Теоретические основы развития компетенции межкультурной коммуникации у будущих переводчиков

Аннотация. *Цель исследования: разработать теоретико-методологические основы развития межкультурной коммуникативной компетенции у будущих переводчиков на основе историко-генетического и сравнительного анализа. Методы исследования: историко-генетический и сравнительный анализ зарубежной научной литературы по теориям коммуникативной и межкультурной коммуникативной компетенции, теоретическое моделирование на основе синтеза полученных выводов. Результаты исследования: выявлена трёхэтапная научная эволюция понятия «коммуникативная компетенция» в понятие «межкультурная коммуникативная компетенция»; обоснованы различия между межкультурной компетенцией, характерной для изучающих язык в целом, и специфичной для переводчика межкультурной коммуникативной компетенцией; дано научное*

определение межкультурной коммуникативной компетенции будущего переводчика, разработана её структура, включающая когнитивный, деятельностный и личностно-отношенческий компоненты. Выводы: выявленные теоретические основы служат концептуальной базой для дальнейших прикладно-методических исследований в области подготовки будущих переводчиков.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, межкультурная коммуникативная компетенция, будущий переводчик, переводческая деятельность, межкультурное посредничество, лингвокультурология, компетентностный подход, теоретическая модель, прагматическая эквивалентность, межкультурная чувствительность, историко-генетический анализ, теоретические основы.

Theoretical foundations for developing intercultural communication competence in future translators

Annotation. Purpose: to develop the theoretical and methodological foundations for developing intercultural communicative competence in future translators through historical-genetic and comparative analysis. Methods: historical-genetic and comparative analysis of foreign scholarly literature on theories of communicative and intercultural communicative competence, and theoretical modeling based on synthesis of the findings. Results: a three-stage scholarly evolution from the concept of "communicative competence" to "intercultural communicative competence" was identified; differences between the intercultural competence of general language learners and translator-specific intercultural communicative competence were substantiated; a scholarly definition of future translators' intercultural communicative competence was formulated, along with its structure comprising knowledge, activity, and personal-attitudinal components. Conclusions: the identified theoretical foundations serve as a conceptual basis for further applied-methodological research in training future translators.

Keywords: communicative competence, intercultural communicative competence, future translator, translation activity, intercultural mediation, linguoculturology, competence-based approach, theoretical model, pragmatic equivalence, intercultural sensitivity, historical-genetic analysis, theoretical foundations.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda xalqaro aloqalarning kengayishi va madaniyatlararo integratsiya jarayonlarining jadallashuvi tarjimonlik faoliyatiga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda. Bugungi kunda tarjimon nafaqat ikki tilni mukammal biladigan mutaxassis, balki ikki madaniyat o'rtasida vositachilik qiluvchi shaxs sifatida talab etiladi. Shu sababli bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash tizimida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini chuqur va tizimli tarzda ishlab chiqish dolzarb pedagogik-metodik muammoga aylanmoqda.

Mavjud ilmiy adabiyotlarni dastlabki tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyasi asosan umumiy chet til o'rganuvchisiga mo'ljallangan bo'lib, uning bo'lajak tarjimonning o'ziga xos kasbiy-vositachilik faoliyati kontekstida qayta talqin etilishi va nazariy jihatdan asoslanishi hanuzgacha yetarli darajada amalga oshirilmagan. Zero, oddiy til o'rganuvchi uchun madaniyatlararo kompetensiya ko'proq o'z nutqiy xatti-harakatini boshqa madaniyat me'yorlariga moslashtirish qobiliyati bo'lsa, tarjimon uchun bu kompetensiya ikki mustaqil madaniy-lingvistik tizim o'rtasida ma'no va madaniy mazmunni saqlagan holda uzatish qobiliyatini talab qiladi. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak

tarjimonni tayyorlash - bu shunchaki ikki tilni o'rgatish jarayoni emas, balki talabada ikki mustaqil madaniy-lingvistik dunyoqarash o'rtasida erkin harakatlana oladigan, madaniy jihatdan sezgir va tanqidiy fikrlovchi shaxsni shakllantirish jarayonidir. Shu bois nazariy jihatdan puxta asoslangan kontseptual baza mavjud bo'lmasa, amaliy-metodik ishlanmalar ham tizimli va izchil bo'la olmaydi. Aynan shu nuqtai nazardan, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining tarjimonlik faoliyatiga xos nazariy mazmunini chuqur tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqotning maqsadi – bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tarixiy-genetik va qiyosiy tahlil asosida ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: kommunikativ kompetensiyadan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaga o'tishning ilmiy-nazariy evolyutsiyasini tahlil qilish; umumiy til o'rganuvchiga xos madaniyatlararo kompetensiya va tarjimonga xos madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi o'rtasidagi nazariy tafovutlarni aniqlash; bo'lajak tarjimonning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasiga ilmiy ta'rif berish va uning tarkibiy tuzilishini asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagilarni ko'rsatdi. D.Hymes tomonidan kiritilgan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi til bilimining nazariy (grammatik) jihatidan tashqari, uning ijtimoiy kontekstda o'rinli qo'llanilishi zarurligini asoslab, chet til ta'limi nazariyasida tubdan burilish yasadi [7; 269-293-b]. M.Canale va M.Swain esa ushbu tushunchani grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlardan iborat tizim sifatida rasmiylashtirdi [3; 1-47-b]. Ushbu nazariy asos keyinchalik Yevropa Kengashining "Umumevropa til kompetensiyalari" (CEFR) hujjatida amaliy-institutsional shaklga keltirildi, unda chet til o'quvchisining kommunikativ kompetensiyasi lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlar orqali tavsiflandi [4].

Biroq 1990-yillarga kelib, C.Kramersch til va madaniyatni ajralmas birlik sifatida talqin qilib, chet tilini o'rganish jarayonida madaniy kontekstni chuqur o'rganish zarurligini asoslashi bilan yangi nazariy bosqich boshlandi [8; 210-295-b]. M.Byram bu g'oyani yanada rivojlantirib, "madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi va uni bilim, ko'nikma, munosabat va tanqidiy madaniy ong kabi komponentlar orqali tizimlashtirdi [2; 80-124-b]. M.Bennett esa shaxsning madaniyatlararo sezgirligi rivojlanishini etnotsentrizmdan etnorelyativizmga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni sifatida tavsiflab, ushbu kompetensiyaning statik emas, balki dinamik-rivojlanuvchi tabiatini asoslab berdi [1; 21-71-b]. D.Deardorff bu qarashni yanada chuqurlashtirib, madaniyatlararo kompetensiyani bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar o'rtasidagi uzluksiz o'zaro ta'sir jarayoni sifatida modellashtirdi [5; 241-266-b]. Shu bilan birga, J.House tarjima sifatini baholash nazariyasida tarjimonning madaniy va pragmatik kompetensiyasini tarjima muvaffaqiyatining hal qiluvchi omili sifatida ko'rsatadi [6], bu esa yuqorida sanab o'tilgan umumnazariy modellarning tarjimonlik faoliyati kontekstida qayta talqin etilishi zarurligini ko'rsatadi. Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy manbalarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyasining rivojlanishi ikki asosiy yo'nalishda kechgan: birinchi yo'nalish - kompetensiyaning tarkibiy-komponentli tuzilishini aniqlashtirish (Hymes, Canale va Swain, CEFR, Byram), ikkinchi yo'nalish esa - uning shaxs rivojlanishi jarayonidagi dinamikasini tavsiflash (Bennett, Deardorff). Ushbu ikki yo'nalishning o'zaro uyg'unlashuvi, ya'ni kompetensiyaning ham tarkibiy, ham jarayoniy jihatlarini birgalikda hisobga olish, bo'lajak tarjimonga xos madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini nazariy jihatdan to'liq va izchil tarzda tavsiflash uchun metodologik zarurat hisoblanadi.

Tadqiqot tarixiy-nazariy xarakterga ega bo'lib, quyidagi metodlardan foydalanildi: kommunikativ va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyalari bo'yicha xorijiy ilmiy adabiyotlarni tarixiy-genetik tahlil qilish (bu metod tushunchaning kelib chiqishi va evolyutsiyasini davrlar bo'yicha kuzatish imkonini berdi); turli nazariy modellarni qiyosiy tahlil qilish; olingan nazariy xulosalarni umumlashtirish va sintez qilish asosida bo'lajak tarjimonga xos madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining nazariy ta'rif va tarkibiy tuzilishini pedagogik-nazariy modellashtirish. Tadqiqot davomida tushunchalarni tahlil qilish, tizimlashtirish va terminologik aniqlashtirish metodlaridan ham foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tarixiy-nazariy tahlil natijasida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasidan "madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya" tushunchasiga o'tishning uch bosqichli ilmiy evolyutsiyasi aniqlandi.

1-bosqich (lingvistik-funksional bosqich, 1970–1980-yillar) - D.Hymesning sotsiolingvistik g'oyalari [7; 269-293-b] asosida M.Canale va M.Swain tomonidan kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlari ishlab chiqilgan davr [3; 1-47-b]; bu bosqichda madaniy omil alohida ko'rib chiqilmagan, balki sotsiolingvistik komponent tarkibida umumlashtirilgan.

2-bosqich (institutsional-amaliy bosqich, 1990-yillar boshi) - Yevropa Kengashining CEFR hujjatida kommunikativ kompetensiya ta'lim siyosati darajasida rasmiylashtirilgan davr [4]; bu bosqichda kompetensiya tuzilishi amaliy ta'lim standartlariga moslashtirilgan, biroq madaniyatlararo o'lchov hanz ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan.

3-bosqich (madaniy-rivojlanish bosqichi, 1990-yillar o'rtasidan hozirgacha) - C.Kramsch [8; 210-295-b] va M.Byram [2; 80-124-b] tomonidan madaniy komponentning mustaqil ahamiyati asoslanib, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya alohida nazariy tushuncha sifatida shakllangan davr; M. Bennett [1; 21-71-b] va D. Deardorff [5; 241-266-b] esa ushbu kompetensiyaning dinamik-rivojlanuvchi tabiatini psixologik-rivojlanish nuqtai nazaridan asoslab berishgan.

Tahlil natijasida, shuningdek, umumiy til o'rganuvchiga xos madaniyatlararo kompetensiya va tarjimonga xos madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi o'rtasida uch jihatdan tafovut aniqlandi: 1) funksional yo'nalish jihatidan - oddiy til o'rganuvchi o'z nutqiy xatti-harakatini boshqa madaniyat me'yorlariga moslashtirishga (adaptatsiya) yo'naltirilgan bo'lsa, tarjimon ikki mustaqil madaniy-lingvistik tizim o'rtasida vositachilik (mediatsiya) vazifasini bajaradi; 2) kognitiv yuklama jihatidan - til o'rganuvchi bitta til-madaniyat tizimi doirasida faoliyat yuritisa, tarjimon ayni bir vaqtda ikki tizimni faollashtirish va ular o'rtasida tezkor taqqoslash olib borish zaruratiga ega, bu esa J. House ta'kidlagan pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash talabi bilan bog'liq [6; 120-160-b]; 3) natija mezoni jihatidan - til o'rganuvchi uchun muvaffaqiyat mezoni muloqotning madaniy jihatdan mosligi bo'lsa, tarjimon uchun bu mezon manba matndagi madaniy mazmunning tarjima matnida adekvat saqlanishi va qabul qiluvchi madaniyat vakili tomonidan to'g'ri idrok etilishidir. Ushbu tafovutlarni hisobga olgan holda, tadqiqot natijasida "bo'lajak tarjimonning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi" tushunchasiga quyidagicha ilmiy ta'rif berildi: bu - bo'lajak tarjimonning manba va tarjima tili madaniyatlari haqidagi bilimlarga, ularni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalariga, madaniy tafovutlarga nisbatan hurmat va ochiqlik munosabatiga, hamda ikki madaniyat o'rtasida ma'no va madaniy mazmunni adekvat tarzda uzatish qobiliyatiga asoslangan, kasbiy faoliyat davomida uzluksiz rivojlanib boruvchi integrativ shaxsiy-professional sifatidir. Ushbu ta'rif negizida uch komponentli nazariy tuzilma - bilim komponenti, faoliyat komponenti va shaxsiy-munosabat komponenti - asoslandi.

Bilim komponenti manba va tarjima tili mamlakatlarining tarixi, ijtimoiy-madaniy tizimi, urf-odatlar, nutqiy odob-axloq me'yorlari hamda ular o'rtasidagi qiyosiy o'xshashlik

va farqlar haqidagi tizimli bilimlarni o'z ichiga oladi. Faoliyat komponenti esa ushbu bilimlarni amaliy tarjima vaziyatlarida qo'llash ko'nikmalarini, xususan madaniy realiyalarni tarjima qilish strategiyalarini tanlash va qo'llash qobiliyatini ifodalaydi. Shaxsiy-munosabat komponenti bo'lajak tarjimonning madaniy tafovutlarga nisbatan etnotsentrik emas, balki etnorelyativ pozitsiyadan yondashishini, ya'ni boshqa madaniyat vakillarining dunyoqarashini hukm chiqarmasdan tushunishga intilishini nazarda tutadi. Ushbu uch komponentning birgalikda rivojlanishi bo'lajak tarjimonda yaxlit kasbiy-shaxsiy sifat sifatida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantiradi.

Olingan natijalar bir qator nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, kommunikativ kompetensiya nazariyasining tarixiy evolyutsiyasi (Hymes → Canale va Swain → CEFR → Kramsch va Byram → Bennett va Deardorff) chiziqli emas, balki kumulyativ xarakterga ega ekanligi aniqlandi - har bir keyingi bosqich avvalgisini rad etmagan, balki uni madaniy o'lchov bilan boyitgan. Bu esa bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash nazariyasida ushbu barcha bosqichlarning integratsiyalashgan holda hisobga olinishi zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, umumiy til o'rganuvchi va tarjimonga xos madaniyatlararo kompetensiyalar o'rtasidagi aniqlangan tafovutlar shuni ko'rsatadiki, mavjud nazariy modellarning (xususan, Byram va Bennett modellarining) bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash dasturlariga to'g'ridan-to'g'ri, o'zgarishsiz tatbiq etilishi metodik jihatdan yetarli emas [2; 80-124-b]. Ushbu modellar tarjimonlik faoliyatining vositachilik xususiyatini hisobga olgan holda qayta ishlanishi lozim, xususan J. Housening pragmatik ekvivalentlik g'oyasi bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi maqsadga muvofiq [6; 120-160-b].

Uchinchidan, D. Deardorffning madaniyatlararo kompetensiyani uzluksiz jarayon sifatida talqin qilishi [5; 241-266-b] bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash tizimida ushbu kompetensiyani bir martalik "shakllantirish" emas, balki butun o'quv davri davomida izchil rivojlantirib borish zarurligini asoslaydi. Bu nazariy xulosa tarjimon tayyorlash o'quv dasturlarini loyihalashtirishda uzluksizlik va bosqichma-bosqichlik tamoyillariga alohida e'tibor berilishi kerakligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotning nazariy xarakterga ega ekanligini alohida qayd etish lozim - taklif etilgan uch komponentli tuzilma va unga asoslangan ta'rif hozircha faqat kontseptual darajada ishlab chiqilgan bo'lib, uning amaliy-metodik jihatlari (xususan, ushbu kompetensiyani shakllantirish texnologiyasi va uni baholash mezonlari) alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Nazariy jihatdan asoslangan uch komponentli tuzilma amaliy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega, chunki u tarjimon tayyorlash o'quv dasturlarini loyihalashtirishda aniq yo'naltiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi: bilim komponenti fanlararo (mamlakatshunoslik, lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi) integratsiyani, faoliyat komponenti amaliy-tarjimaviy mashg'ulotlar tizimini, shaxsiy-munosabat komponenti esa talabaning madaniy hurmat va ochiqlik kabi fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni talab qiladi. Bunday integrativ yondashuv bo'lmagan taqdirda, ta'lim jarayoni faqat lingvistik ko'nikmalarni shakllantirish bilan chegaralanib qolishi va tarjimonning kasbiy faoliyatida real madaniy vaziyatlarga tayyor bo'lmashligi mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan tarixiy-nazariy tadqiqot bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish muammosining nazariy ildizlari kommunikativ kompetensiya nazariyasining yarim asrlik evolyutsiyasiga borib taqalishini, biroq ushbu kompetensiyaning tarjimonlik faoliyatiga xos vositachilik xususiyati alohida nazariy asoslanishni talab etishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijasida bo'lajak tarjimonning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasiga ilmiy ta'rif berildi, uning bilim, faoliyat va shaxsiy-munosabat komponentlaridan iborat nazariy tuzilmasi asoslandi, hamda umumiy til o'rganuvchi va tarjimonga xos kompetensiyalar o'rtasidagi tafovutlar aniqlandi. Ishlab

chiqilgan nazariy asoslar bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash sohasidagi keyingi tadqiqotlar, xususan ushbu kompetensiyani rivojlantirishning amaliy-metodik texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar uchun kontseptual negiz bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida taklif etilgan nazariy modelni amaliy tarzda tekshirish, uning asosida diagnostik vositalar va baholash mezonlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bennett M. J. Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity // Paige R. M. (ed.) Education for the Intercultural Experience. – Yarmouth, ME: Intercultural Press, 1993. – P. 21–71.
2. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.
3. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
5. Deardorff D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – Vol. 10, No. 3. – P. 241–266.
6. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. – London: Routledge, 2015. – 160 p.
7. Hymes D. H. On Communicative Competence // Pride J. B., Holmes J. (eds.) Sociolinguistics: Selected Readings. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
8. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – 295 p.